



MAQOM IJROCHILIGI AN'ANASI: ETNOGRAF MUSIQASHUNOS N.N.MIRONOV IJODI

Muallif: Arzimurodova Nigora¹

Affiliatsiya: O'zDSMI, "Milliy qo'shiqchilik" kafedrasi o'qituvchisi¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14377717>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada asrlar davomida xalqimizga chuqur ma'naviy ozuqa berib kelayotgan milliy musiqa boyligimiz bo'l mish maqomlarimiz, maqomlarimizni o'rganishda ustoz – shogird an'anasi haqida so'z boradi. Shu bilan birgalikda maqomlarimizni to'plashda jonbozlik ko'rsatgan etnomusiqashunos N.N.Mironov ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Etnomadaniyat, musiqa, nota, ashula, musiqashunos, an'ana, me'ros.

O'zbek xalqi ham uzoq tarixiy davr mobaynida shakllanib, juda ko'p milliy-madaniy xususiyatlarga ega bo'ldi.

Etnografiya ijtimoiy fanlardan bo'lib, xalq va elatlarning kelib chiqishini, etnik tarixini, madaniy-maishiy turmush tarzini, an'anaviy mashg'ulotlarini o'rganadi. Etnomusiqashunoslik esa o'zbek xalqining ma'naviy me'rosi bo'l mish milliy boyligimiz bo'l mish go'zal kuy-qo'shiqlarimizning, maqomlarimizning kelib chiqishini, rivojlanish jarayoni va tarixini o'rganadi.

O'zbek klassik musiqasi yoki an'anaviy professional muzikasiga tegishli asarlar (jumladan maqomlar ham) og'izdan – og'izga, ustozdan shogirdga, avloddan avlodga o'tib kelgan, shuning uchun ham bu soha musiqalariga nisbatan og'zaki an'anadagi professional musiqa iborasi ishlataladi.

An'ana – jamoa ijodkorligining mahsuli, shu bilan birgalikda xalq tafakkuri bilan yaralgan turli ma'naviy qadriyatlarning jamoaviy holda saqlab qolishning ham o'ziga xos shakli hisoblanadi. Binobarin, ma'naviy qadriyatlarning avloddan-avlodga, og'izdan-og'izga o'tib yashashi an'ana yoki an'anaviylikdir.

Barchamizga ma'lumki, o'zbek musiqa merosi ikki ulkan soha – xalq ijodi, ya'ni ko'p qirrali mavzu bilan xarakterlanuvchi, o'z ildizlari bilan uzoq o't mishga taqaluvchi hamda soddaroq tuzilishdagi folklor janrlari va huddi shu negizda shaakllangan murakkabroq tuzumli, rivojlangan ashula va cholq'u asarlar (shu jumladan maqomlar)ni qamrab olgan og'zaki an'anadagi professional (kasbiy) ijoddan iboratdir.

O'zbek musiqa merosini to'plash va yozib borish ishlari XX asrda muntazam va izchil amalga oshirib borildi. Bunda dastlab 1919 yili Turkiston Respublikasi Xalq Maorif Komissarligining San'at bo'limi huzurida tashkil etilgan Badiiy-etnografik komissiyasi e'tiborli faoliyat ko'rsatdi. Komissiya a'zolari – G.Zafariy, V.A.Uspenskiy, N.Mironov va

E.Melngaylislар o'z oldilariga O'rta Osiyo xalqlari musiqa ijodini atroflicha o'rganishni, uni to'plab nashr etishni va boshqa ilmiy-ijodiy vazifalarni maqsad qilib qo'ydilar.

XX asrning 20-30-yillarida V.A.Uspenskiy, N.N.Mironov, E.E.Romanovskaya, Yunus Rajabiy o'zbek musiqa namunalarini yozib olishgan bo'lsa, G'ulom Zafariy, A.K.Borovkov, K.K.Yudaxin, M.F.Gavrilovlar o'zbek xalq og'zaki teatri an'analarini o'rgandilar.

Alovida ta'kidlashimiz kerakki, musiqiy merosni to'plash ishlarida N.N.Mironovning/1870-1952/ faoliyati e'tiborga loyiqidir. Turkistondagi, O'zbekistondagi o'z faoliyatini avvaliga rus armiyasining harbiy kapelmeysteri sifatida boshlagan N.N.Mironov, keyinchalik musiqiy-ma'rifiy ishlar borasida jonbozlik ko'rsatgan edi. Xususan, 1928-yili uning tashabbusi bilan Samarcandda O'zbek musiqa xoreografiya instituti ochilgan bo'lib, unda saboq saboq berishga Ota Jalol Nosir, Ota G'iyoq Abduq'ani, Domla Halim Ibodov, Abduqodir Ismoilov, Ahmadjon Umrzoqov, Matyusup Xarratov singari mashhur hofiz va sozandalar jalb etiladi. Institutning yuqori guruh talaba va aspirantlari musiqiy merosni amaliy o'zlashtirish bilan birga uni fonograf orqali valiklarga muhrlash ishlarini ham bajarar edilar. Bu faoliyatning pirovardida N.N.Mironov tomonidan nashrga birin-ketin uch kitob tayyorlanib, ularda uning shogirdlari M.Ashrafiy, Sh.Ramazonov, T.Sodiqov yozib olgan milliy musiqa kuylari to'plangan edi.

1932-yili O'zbek musiqa va xoreografiya instituti Toshkent shaxriga ko'chirildi. Bu dargohning hodimlari V.A.Uspenskiy, E.E.Romanovskaya (1890-1947), I.Akbarov va X.Muhammedovalar (1915-1993) Toshkent, Farg'on'a vodiysi, Andijon, Farg'on'a, O'sh, Marg'ilon, Xorazm va Buxoro bo'ylab musiqiy-etnografik ekspeditsiyalari uyuştirdilar. Bir qator chop etilgan to'plamlar ana shu mehnatning hosilasidir. Xususan, "O'zbek xalq qo'shiqlari" I-II kitoblar-1939, III-kitob-1954, "Xorazm klassik muzikasi"-1939, "O'zbek cholg'u muzikasi"-1948, "Navoiy so'ziga muzikalar"-1949, "O'zbek vokal muzikasi"-1950 nota to'plamlari shular jumlasidandir. Ushbu yozuvlar mazmunida xalq musiqasi namunalari – Farg'on'a ayollarining qo'shiqchilik ijodlari va kasbiy musiqaga doir Xorazm maqomlarining cholg'u kuy va boshqa turdag'i rivojlangan ashula yo'llari o'z aksini topgan edi. Shuningdek, 1949-yili Illyos Akbarov O'zSSR xalq artisti Usta Olim Komilovdan 50 ga yaqin doira usullarini yozib oladi va 1952-yili "Doira zarblari" nomi bilan chop ettiradi.

Mironov hayotining katta qismini musiqiy namunlarni to'plashga bag'ishlaydi. Mironov Nikolay Nazarovich 1870-yilda Rossiyaning Samara guberniyasining Voskresenskiy qishlog'ida dehqon oilasida tug'iladi. Musiqaga qobiliyati o'tkir, kuchli va shirali ovozi bor Nikolay cherkov va knyaz xonardonida tashkil topgan xor jamoasiga qatnashadi. Boshlang'ich muktabda o'qiydi, nota yozuvini o'rganadi va skripka chalishni o'zlashtira boshlaydi. U 10 yoshida otasidan, ikki yildan so'ng esa onasidan ayrıldi. Samara shahriga kelib, damli cholg'ular orkestriga shogird bo'lib ishga kiradi. 1891-yili Moskva konservatoriysi qoshidagi harbiy dirijyorlik fakultetiga o'qishga kiradi. 1896-yili konservatoriyanı bitirib, Marg'ilon va Qo'qon shaharlari joylashgan rus qo'shinlari damli cholg'ular orkestriga dirijyor (kapelmeyster) etib tayinlanadi. Shu bilan birga mahalliy xalq musiqasi bilan qiziqadi va o'rganishga intiladi. 1904-yili Farg'on'a vodiysi, Yetti suv va Sharqiy Sibirga sayohat qilib, turli xalqlar kuylarini notaga yozib, o'z ijodida foydalanishga harakat qiladi. 1906-yili N.Mironov Toshkent harbiy garnizonining namunali damli cholg'ular orkestriga badiiy rahbar va bosh dirijyor lavozimiga tayinlanadi. U ziyolilar va san'atkorlar tomonidan 1885-yilda tashkil qilingan Toshkent

Musiqiy teatr jamiyatiga a'zo bo'ladi. Mironov xor va simfonik orkestrni tashkil etib, Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Andijonlarda konsertlar beradi. U romans va yakka cholg'ular uchun kuylar qatorida "Боярин Орша", "Русские женщины", "Цыгане", "Коробейники" kabi operalarni ham yaratdi.

N.Mironov 1918-yili tashkil topgan "Turkiston xalq konservatoriysi" kengashi a'zosi sifatida faoliyat ko'rsatadi. V.A.Uspenskiy boshchiligidagi ish boshlagan "Musiqiy etnografik va teatr" bo'limiga N.Mironov o'rinnbosar etib tayinlanadi. O'zbek san'atkorlaridan 1922-yili "Etnografik musiqiy ansambl" tuzib, O'rta Osiyoning yirik shahrlarida va Moskvada 1926-yilda 80 ta konsert berishadi. Shu yillari u yana Toshkent, Samarqand, Buxoro, Kavkaz, Sibir va Mongoliya bo'ylab folklor ekspeditsiyalarini tashkil etib, 200 dan ortiq qo'shiq va kuylarini notaga yozib olishga muvaffaq bo'ladi. 1928-yili professor Fitrat va N.Mironov zimmasiga Samarqand shahrida "Musiqqa va xoreografiya ilmiy-tadqiqot instituti"ni tashkil qilish vazifikasi yuklanadi. Institut faoliyati va uch yo'nalishda joriy qilinadi. Ya'ni, o'zbek xalq va Ovro'po cholg'u asboblarida talabalarni o'qitish, milliy va Ovro'po raqslarini o'rgatish, musiqqa me'rosini o'rganish va targ'ibot qilish. Milliy musiqqa merosni talabalarga o'rgatish niyatida u Buxoro, Xorazm va Farg'ona vodiysidan mashhur san'atkorlarni va Rossiyadan ham ayrim mutaxassislarini ishga taklif qiladi. O'zbek va Tatar tillarida "Boshlang'ich musiqqa nazariyası" darsligini tayyorlaydi. "Музыка узбеков" (Samarqand, Moskva, 1929 y), "Обзор музыкальных культур узбеков и других народов Востока" (Samarqand-Moskva, 1931 y), "Музыка таджиков" (Moskva, 1932 y) kitoblarini nota misollari bilan yozadi va uning rahbarligida talabalar: M.Ashrafiy "Buxoro", Sh.Ramazonov ("Xiva" va T.Sodiqov "Farg'ona" xalq qo'shiqlarini notaga yozib "Песни Ферганы, Бухары и Хивы" nomli to'plam Toshkentda 1931-yili chop etilgan. N.Mironov rahbarlik qilgan mazkur institutda M.Ashrafiy, M.Burhonov, T.Sodiqov, Sh.Ramazonov, A.Halimov, D.Zokirov, M.Leviyev, M.Nasimov, F.Shamsuddinov, B.Inoyatov, N.Hasanov, Sh.Sohibov, F.Shahobov va boshqalar o'qishgan.

Nikolay Mironov 1929-yili tashkil topgan Musiqali drama teatri qoshidagi studiyada musiqqa nazariyasidan saboq beradi. Teatr repertuarini boyitishda dramaturg va bastakorlar bilan hamkorlikda musiqali dramalar yaratishga muvaffaq bo'ldi. Jumladan, u T.Sodiqov bilan "Po'rtana" (S.Abdulla pyesasi), T.Jalilov bilan "Tohir va Zuhra" (S.Abdulla pyesasi), Yunus Rajabiy bilan hamkorlikda yaratilgan "Qo'chqor Turdiyev" nomli musiqali dramalar uning nomi bilan bog'liq. 1936-yili T.Jalilov O'zbek filarmoniyasi qoshida tashkil qilingan O'zbek xalq cholg'ulari ansambl sozandalarini nota yozuvini o'rgatishda ko'maklashdi va ulardan "notali orkestr" tuzdi. Hamza Hakimzoda Niyoziy 1928-yili Samarqand ilmiy-tadqiqot institutda N.Mironovdan biroz saboq olgan. N.Mironov M.Ashrafiy bilan hamkorlikda Shota Rustaveli dostoni asosida "Yo'Ibars terisini yopingan pahlavon" nomli vokal-simfonik poemani yozadi. O'zbek, rus, tojik, mo'g'ul, qalmiq va boshqa xalqlar musiqasini fortepiano, xor, turli cholg'ular, ansambollar, o'zbek xalq cholg'u va simfonik orkestrlar uchun qayta ishlab ularga moslashtiradi.

N.Mironov zamonaviy, o'zbek professional musiqqa san'atini rivojlantirishdagi ulkan xizmatlari uchun 1930-yilda "O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan san'at arbobi", 1937-yilda "O'zbekiston xalq artisti" faxriy unvonlari bilan taqdirlanadi.[3, B.194;]

Xulosa o'rnida shuni aytamizki, o'zbek xalqining musiqqa madaniyati juda uzoq tarixga ega. Tarixiy taraqqiyot davomida xalq mumtoz musiqasi, an'anaviy kasbiy musiqqa, xalq bastakorlik yo'llari, shuningdek, folklor – havaskorlik musiqiy merosi singari

shaklan va usluban bir-biriga yaqin ijrochilik yo'nalishlari bir-birini to'ldirib keldi. Ushbu musiqiy me'rosimiz bugungi kunimizda ham ma'naviy madaniyatimizning bir bo'lagi sifatida namoyon bo'lmoqda. Zero, muborak mustaqillikka erishgan kunimizdan, o'zligimizni anglagan bir davrda ulkan ma'naviyatimizning bir bo'lagi bo'lgan, otabobolarimizdan meros bo'lib kelgan milliy musiqiy madaniyatimizga suyanish, an'anaviy musiqamizga murojaat qilish tabiiy bir xoldir. Bularning barchasi barkamol avlod tarbiyasida, yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

Ashirov A, Atadjanov Sh. Etnologiya. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2008.

Ibrohimov O.A. O'zbek xalq musiqa ijodi. 1-qism. Toshkent-1994-yil.

Jabborov.A.H. O'zbekiston bastakorlari va musiqashunoslari. Toshkent – 2015.

Karomatov F. O'zbek xalqi muzika merosi. "Adabiyot va san'at" nashriyoti.

Toshkent – 1978.

Matyoqubov O. Maqomot. – Toshkent: Musiqa, 2004.

Rajabov I. Maqomlar. – Toshkent: San'at, 2006.

Yu.Rajabi. Shashmaqom (O'zbek maqomlari). Toshkent-2007.

Yo'idosheva N, Raxmatova N. O'zbek musiqa adabiyoti. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2016.